



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Zuhra Azilova¹

¹Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek adabiyoti kafedrası
o'qituvchisi

„FARHOD VA SHIRIN“ QORAQALPOQ TILIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni qoraqalpoq tilidagi tarjiması bilan qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, matn, asliyat adabiyoti, tarjimashunoslik, taglama, asliyat tili.

Kirish. (Introduction). Badiiy tarjima jarayonida ikki madaniyat o'zaro tutashadi. Madaniyatlarning bir-biriga ta'siri matnning ikki xil ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda quyidagi ikki xil mezon asosida tarjimaga yondashiladi. Tarjimada asliyat adabiyoti an'analari ustunmi? Yoki tarjimada qabul qiluvchi muhit an'analari? Asliyatdagi matnni qabul qilish bosqichida matnni qiyoslash jarayoni sodir bo'ladi. Ya'ni badiiy tarjima ijodiy jarayon hisoblanadi. Tarjima natijasida boshqa bir tilda yangi badiiy asar yaratiladi. Bu jarayon esa har bir tarjimonning mahoratiga, ijodiy qobiliyatiga bog'liq. Tarjimondan o'zbek adabiyoti an'analari, janrlar rang-barangligi, o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, falsafiy yo'nalishi, didaktik qarashlarini puxta o'rganish talab etiladi. Navoiy dahosi asarlarini tarjima qilish ham tarjimondan yuksak bilim, mahorat, ijodiy qobiliyatni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). „Farhod va Shirin“ – „Xamsa“dagi yirik she'riy dostonidir. Asarning boy g'oyaviy mazmuni, adabiy-estetik mohiyati adabiyotshunosligimizda o'rganilgan. Dostonning qoraqalpoq tilidagi tarjiması ham chuqur ilmiy, qiyosiy tahlilga muhtojdir. Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni M.Daribayev (4, 5, 6, 7, 18, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 37-boblarini), J.Aymurzayev (1, 2, 3, 19, 20, 21, 22, 32, 33, 34, 35, 36, 38-boblarini), N.Japaqov (8, 9, 10, 11, 39, 40, 41, 42, 43, 44-boblarini), A.Shamuratov (8, 15, 16-boblarini), R.Majitov (12, 13, 14-boblarini), K.Jumaniyazov (17-bobini) tomonidan qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan. 1941-yilda

„Qaraqalpaqstan“ nashriyotida „Farhad ham Shirin“ nomi bilan kitob holda nashr qilingan. Mazkur kitob N.Dawqarayev tomonidan yozilgan „So‘zboshi“ bilan boshlanadi:

„Farhad ham Shirin“ dastani dunya adabiyatidan keń orin olgan muhabbet, tirishilik, turmıs, zaman, adamgershilik, adamlardıń arasındaǵı baylanısı, jamiyetlik qatnas joninde jırlaydı“ [3, 9]. Biz mazkur maqolada „Farhod va Shirin dostonining qoraqalpoq tiliga tarjimasini qiyosiy o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada mavzuni qiyosiy tahlil etishda o‘zbek tarjimashunos olimlarining tarjima bilan bog‘liq nazariy qarashlariga, xususan, G‘.Salomov, N.Komilov, K.Jo‘rayev singari olimlarning tadqiqot va maqolalari asoslanildi. „Farhod va Shirin“ dostonini tarjimasini o‘rganishda qiyosiy tahlil metodidan foydalandik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi zamon tarjima ilmining talablaridan biri asliyatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishdir. Chunki, taglamadan tarjima qiladigan tarjimonga qaraganda, asliyat tilini biluvchi tarjimonning imkoniyatlari nisbatan kengroqdir. Shunday ekan asliyatdan tarjima qilish zarur. Bundan tashqari, mutarjim qabul qiluvchi muhit tilini ham adabiy an‘analarini ham mukammal bilishi shart. Ana shundagina sifatli tarjimalar yaratiladi.

„Badiiy tarjimada esa asosiy qurilish materiali, tarjimaning birinchi va eng zarur elementi bo‘lgan so‘zning o‘rni beqiyos kattadir“ [4, 3]. Shu bois tarjima sohasidagi ish, birinchi navbatda, so‘zni tahlil qilishga bag‘ishlanadi. „Farhod va Shirin“ dostoni VI bobida: „Kimki Nizomiyning xazinasiga o‘g‘rilik qilish niyatida yaqinlashar ekan, uning boshiga falak toshotaridan toshlar yog‘iladi. Har tomonga yog‘ilgan toshlardan do‘stlar gavhar topsa, dushmanlar chaqirtoshni topadi“ [2, 4] – deb tasvirlangan. Tarjimada qofiyani yuzaga keltirish uchun „chaqirtosh“ so‘zi tushirilib „xarap“ deb tarjima qilib ketilgan. „Chaqirtosh“ tilga olinmagan.

Yog‘ib chun toshi har yon oshkoro,
Topib ahbob – gavhar, xasm – xoro.[1, 17]

Tarjimada:

Bul taslar hár jaqqa ketedi tarap,
Dosqa gáwhar jawdı etedi xarap [3, 16]

Nizomiy asarlarini Navoiy gavharga qiyoslagan. Bu gavharlar yulduzlardek osmonni qoplaganligi aytilgan. Asliyatdan olingan quyidagi baytda durlar qalbnigina lobolab to‘ldirib qolmay, daryoni ham to‘ldirishga qodir deya tasvirlanadi:

Ko‘ngul durjin demay bo‘lg‘ay labolab –
Kim ul daryoga solg‘ay durni to lab.

Tarjimada bo‘lsa durlar faqat quloq burchida turadi, Daryoga solinsa, „shıpıldap“ to‘lar deyiladi:

Demek, bul tek qulaq burshında,
Daryağa salinsa shıpıldap tolar.

Asliyatda:

Bu andoq tun aro shabxez bulbul,
Shabiston ichra sho‘rangez bulbul.

Tarjimada:

Aqshamlari jatpas uyqisim ashar,
 Qaygı zar atınıñ ushqınin shashar.

Asliyatda Navoiy Xusravni qorong‘u kechada uxlamaydigan, tunda suron soluvchi bulbulga o‘xshatgan. Bulbul bu yerda timsol. Bu so‘z misralarda radif bo‘lib kelgan. Radif so‘zi ma’nosiga keladigan bo‘sak, „aslida otda suvoriyga mingashgan kishini anglatib, „yo‘ldosh“, „hamroh“ ma’nosida ham qo‘llaniladi. Shunga ko‘ra she’rda hamma vaqt qofiyadan keyin, ya’ni unga „mingashib“ yoki unga „yo‘ldosh“ bo‘lib kelgan so‘zlar takrorini radif deb ataganlar“ [4, 132]. Bayt mazmuni ham unga yuklangan. Lekin tarjimada bulbul so‘zi tushirib qoldirilgan.

Asliyatda:

Kerak sher oldida sher jangi,
 Agar sher o‘lmasa bori palangi.
 Yo‘q ersa jam’ bo‘lsa borsdek yuz,
 Alardin hosili yo‘q, g‘ari ruf yuz.

Sherning oldida sherdek jang qilish kerak, Agar sher bo‘lmasang ham yo‘lbarsdek bo‘lmoq darkor. Bo‘lmasa yo‘lbarslardan yuztasi yig‘ilsa ham ulardan foyda yo‘q ularning yuziga puf deyish kerak xalos, deb Navoiy Xamasa yozish nihoyatda qiyinligini tasvirlaydi. Endi mana shu mashhur baytlarning tarjimasi bilan tanishamiz:

Mende aybatli arislan bolmagim gerek,
 Arislanday bolip turmagim gerek.
 Jolbaristin juzinen payda joq hasla,
 Ilaj joq betine tupiriwden basqa.

Ko‘rinib turibdiki, tarjima so‘zlar takrori bo‘lib qolgan. „Arslonday bo‘lib turmog‘im gerek“ deyish bilan cheklangan. Ikkinchi baytda esa yuzta yo‘lbars yig‘ilsa degan joyi tushurilib, ma’no mujmal bo‘lib qolgan. „Betiga tupirish“ birikmasi, bizningcha noo‘rin qo‘llanilgan. Asliyatda bu baytda yuz so‘zi ikki xil ma’noda qo‘llanilib, so‘z o‘yini ishlatilgan. Navoiy mazkur baytda tajnis san’atidan mohirlik bilan foydalangan. Yuz omonim so‘z bo‘lib, uning „son“, „bet“ degan ma’nolari bor. Birinchi misrada yuz so‘zi „son“ ma’nosida qo‘llanilgan. Ikkinchi misrada esa „bet“ ma’nosida ishlatilgan. Tarjimada esa bu san’at yo‘qotilgan. Yuz so‘zi misra o‘rtasida „son“ ma’nosida qo‘llanilgan. Ikkinchi misrada yo‘q. Yuz so‘zi radif ham bo‘lib kelgan. Tarjimada esa radif aks etmagan. VI bobdagi Nizomiy tasvirlagan quyidagi bayt tarjimada tushirilgan:

Tegar daryog‘a sarsar qo‘zg‘aloni,
 Vale har yon esib chayqatmas oni.

Daryo qo‘zg‘alganda shamolga ham ta’sir qiladi. Ammo esgan har qanday yel uni chayqata olmaydi. Keyingi baytda xartum tumshuq deb tarjima qilingan:

Pilge qol salwga, pil bolw gerek
 Tumsigin gayratli ham bolsin trek.

Asliyatda bu bayt fil bilan olishish xurtumiga xartum solish uchun fil bo‘lish kerak degan ma’noni beradi. Tarjimada o‘zgacha bo‘lib qolgan. Jomiyga ta’rif-tavsif berilgan VII bob tarjima qilinmagan.

Asliyatda VIII bobda:

Qo‘yub vasvos-u savdolarni bir yon,
Yetishtim pir dargohiga giryon.

Bo‘lmag‘ur xayollarni yig‘ishtirib, ko‘zimda yosh bilan Jomiy dargohiga yetib bordim. Bu baytda pir deb ketilgani bilan doston oxirida xuddi shu baytdagi pir so‘zi izohlab berilgan. Unga ko‘ra, Jomiy ko‘zda tutiladi. Tarjimada esa bir eshikka bordim deb qayerga borganligi noma’lum bo‘lib qolgan:

Bolmagan qiyaldi qoydim-da basqa,
Bir esikke keldim kóz tolíp jasqa.

Asliyatda:

Chu men tufrog‘ yerdin ko‘kka yettim,
Yer o‘ptim dog‘i o‘z hujramga kettim.

Birinchi misrasidan men tuproq yerdan ko‘kka yetdim degan ma’no anglashiladi. Tarjimada:

Men topıraq edim, endi kókke jettim,
Jer súydim ózimniń úyime kettim.

Bayt mazmunan to‘g‘ri tarjima qilingan. Lekin yerdin degan so‘z tushib qoldirilib tazod san’ati tarjimada aks etmay qolgan. Keyingi bayt esa tarjima qilinmay tashlab ketilgan. Unda shoir hujrasi eshigini yopishi bilan Haq unga yuzta eshikni ochganligi aytiladi.

VIII bob oxirida shunday bayt keltiriladi: „Jomiydan bizga shunday istak orzu yetishgan ekan, sen uning yodi bilan bir qadah may tut!“ deb soqiyga murojaat qiladi. Tarjimada esa Jomiydan emas, kesadan bir tilek jetisti bizge deyiladi:

Kesadan bir tilek jetisti bizge,
Ol ushın bir kesa ber deymen sizge.

Asliyatdagi IX bob asliyatga mos to‘g‘ri tarjimalangan. Quyida shu bobdan bir bayt misollar keltiramiz.

Asliyatda:

Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘likim, el yugurmishtur yugurmak.

Tarjimada:

Jaqsı emes eldiń keyninde qalmaq
El salǵan joldan jol salmaq

Baytlarda o‘xshatish va iboralarni mazmunga mos ravishda qo‘llanilgan. Bunday misollardan yana ko‘plab keltirishimiz mumkin. Umuman, biz faqat tarjimasi o‘zgacha

boʻlgan baytlardan misollar keltirdik. Tarjimasi muvffaqiyatli chiqqan baytlarga toʻxtalmadik, sababi bular shundogʻ ham koʻrinib turibdi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Sheʼriy tarjima – nihoyat darajada murakkab jarayon. Gʻ.Salomov tarjima nazariyasiga doir qimmatli fikrlarni bayon etgan edi. Uning fikricha, asarni tarjima qilishga kirishishdan oldin tarjimon oʻz-oʻzidan: shoirning qalbida alanganib yotgan otashni men ham oʻz qalbidam his etamanmi; asl nusxada aks etgan maʼno nozikliklarini men ham tarjimada bera olamanmi; grammatikani bilamanmi; sheʼr tuzilishidan xabardormanmi; nafasat bilan qoʻpollikni farqlay oladigan quloq menda bormi? – deb soʻrashi kerak. Tarjimon ana shu savollarga ijobiy javob bergandan keyingina tarjima qilishga kirishishi lozim. Boshqa tilda yaratilgan ijod naʼmunasini ikkinchi bir tilga tarjima qilish tarjimondan yuksak iqtidorni talab qiladi. „Farhod va Shirin“ dostoni tarjimasida ham tarjimonlar imkon boricha asliyatdagi mazmuni ochib berishga harakat qildilar va dostonining qoraqalpoq tiliga oʻgirilishi muhim hodisa sifatida baholandi.

ADABIYOTLAR:

1. Navoiy A. Xamsa. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Navoiy A. Farhod va Shirin. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1975.
3. Nawayi A. Farhad ham Shirin. Toʻrtkul: Qoraqalpoq mamleket baspasi. Toʻrtkul – 1941.
4. Olimov S. Masnaviy tarjimasida radif. –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1980.
5. Salomov Gʻ. Til va tarjima. –T.: Fan nashriyoti, 1966.